

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI


SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI TAYYORLASH, SAQLASH
VA QAYTA ISHLASHNI TASHKIL ETISH KAFEDRASI**

5410500 – Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash
texnologiyasi

**“QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI
SAQLASHDA SOVUTISH TEXNOLOGIYASI VA
JIHOZLARI”**

fanidan
USLUBIY QO'LLANMA



Samarqand – 2014 yil

“Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlashda sovutish texnologiyasi va jihozlari” fanidan uslubiy qo’llanma Samarqand Qishloq xo’jalik Instituti o’quv uslubiy kengashining 28.02.2014 yilidagi № 7 sonli yigilishida ko’rib chiqildi va nashrga tavsiya etildi

Tuzuvchilar: Yusupov A.H –SamQXI dosenti,k.f.n.
Tashmanov R.Q –SamQXI assistenti.

Taqrizchilar: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
dosenti A.YU.Xudoyberdiev
Samarqand qishloq xo`jaligi instituti
dosenti SH.A.Ishniyazova

“Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash,saqlash va qayta ishlashni tashkil etish” kafedrasining 2014 yil yanvar oyidagi yig`ilishi bilan tavsiya etilgan.
Bayonnoma № 5

K I R I Sh.

Sabzavot va mevalar qishloq xo'jaligidagi mavsumiy mahsulot bo'lib, ular oziqaviy moddalarga juda boydir. Bu mahsulotlar mavsumiy bo'lishiga qaramasdan axoli dasturxonida yil davomida har kun bulishligini taqoza qiladi. Meva, sabzavot mahsulotlari inson istimol qiladigan oziq-ovqat xajmining uchdan bir qismini tashkil qiladi. Bu mahsulotlarni alohidaligi shundan iboratki, ular bir vaqtda yuqori oziqaviy xususiyatga va biologik qiymatga ega, ammo nisbatan kam energiya beradi. Ularning mavsumiyliigi va saqlashga chidamsizligi, bu mahsulotlarga maxsus tovar sifatida qarashga va ularni saqlash choralarini ishlab chiqishga majbur qiladi.

Axolini yil davomida meva va sabzavot mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash uchun ularni yig'ib olingandan sung uzoq muddat davomida saqlash choralarini joriy qilish lozimdir.

Qishloq xo'jaligida meva va sabzavotlarni yetishtirishni kupaytirish uz navbatida ularni saqlash muammosini yaratadi. Natijada yetishtirilgan mahsulotning kupchilik qismi nobudgarchilikka uchraydi. Chunki, bugungi kundagi meva va sabzavotlarni industrial asosida yetishtirish bilan ularni saqlashdagi an'anaviy metodlar o'rtasida kelishmovchilik keskinlashib bormoqda, shuning uchun bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri yetishtirilgan sabzavot va meva mahsulotlarini nobudgarchilikka yul qo'ymagan holda to'lig'icha saqlab, uni aholiga yetkazishdan iborat. Bu metodlarni o'rganish yordamida biz avvalo mahsulotlarni uzoq-muddatga saqlash uchun qaysi tipdagi saqlash xonalarini tashkil kilishni, mahsulotlarni xiliga qarab ularni tanlashni o'rganamiz.

Tashkil qilingan sharoitlardagi q/x mahsulotlarini uzining tabiiy xususiyatlarini jumladan oziqaviy va biologik xususiyatini o'zgartirmasligi darkordir.

Ushbu yaratilgan metodik qo'llanmada biz yuqorida keltirilgan sharoitlarni oziq-ovqat mahsulotlariga ta'sirini, ularda kechadigan o'zgarishlarni, jumladan ushbu tashkil qilingan ayrim yunalishlarni va bosqichlarni tahlil asosida o'rganish usullarini berishni lozim deb topdik.

L A B O R A T O R I Y a I Sh I №1

Havoning haroratini, nisbiy namligini va xaraqat tezligini o'lchash.

Ishning maqsadi: Talabalarni sovitish kameralari ichidagi, yoki oziq-ovqat va qishloq xujalik mahsulotlarini tabiiy xamda sun'iy sovuqlik bilan sovitiladigan omborxonalaridagi xavoning xaroratini ulchash va asboblarning ishlash prinsiplari bilan tanishtirish.

Kerakli asboblari: Stasionar sovitish kameralari yoki savdo sovitish jixozining bir turi (sovitish shkafi,yig'ma sovitish kamerasi,rasta,mashina sovitgich).

Oziq-ovqat va qishloq xujalik mahsulotlarini xaroratini ulchashda namuna sifatida muzlatilgan,bir oz muzlatilgan va sovitilgan mahsulotlardan foydalaniladi. Umuman olganda haroratni suyuqlik termometrlari, termograflar, qarshilik termometrlari va termoparalar yordamida ulchaydilar. Suyuqlikli shisha termometrlarning ish prinsipi jismlarning issiklikdan kengayishi xususiyatiga asoslangan. Shisha termometrlarda xaroratning uzgarishi bilan termometrik suyuqlik va shishaning xajmi bir vaqtda uzgaradi. Termometrik suyuqlik sifatida simob,spirt,toluol,pentin va boshqalar ishlatiladi. Xajmiy kengayishning sezilarli koeffisiyenti simbo uchun – 0,00016, etil spirti uchun – 0,00009, toluol uchun – 0,00107,pentin uchun – 0,00009 K. Suyuqlikli termometrlar uchun ulchashning yuqori chegarasi suyuqliklarning bug'lanish chegaralari temperaturasi bilan,o'lchashning pastki chegarasi esa ularning qotish temperaturasi bilan chegaralanadi. Masalan: ulchashning pastki chegarasi simob uchun – 35° S, etil spirti uchun - 80°S, pentin uchun – 190°S ga teng.

Sovitish kameralarida ulchash davomida minimal xaroratni aniqlash uchun spirtli termometrlar kulaniladi, ularning konstruksiyasidagi xususiyati undagi kapelyar ichida yupqa shtift joylashtirilgan va bu termometrlar gorizontal xolatda xam ishlash imkoniyatiga ega, ulchashdan oldin termometrni rezervuarini yuqoriga qilib aylantirib, shtifning ustunini liniyaga tug'rilaymiz. Germoelektrik termometrlar turli utkazgichlar aralashmasidan,masalan xromel va kopal quyilmalaridan (termoelektrodlardan) yasaladi. Termoparalar 1ta yoki 2ta payvandlangan uchga ega bo'lib, potensiometr esa ochiq uchlariga yoki termoelektrodning bittasini uzilgan joyiga ulanadi. (1-rasm). Bitta payvandlangan uchga ega bulgan termoparaning erkin uchlari doimiy (t_2) haroratga ega bo'lishi,ikkinchi usulda payvandlangan uchga ega bulgan xolda xam erkin uchlarida bir xil haroratga ega bo'lishi kerak,bitta ulangan uchi esa muzga (nolevoy ulanma) tushirilishi kerak.

Termoparalar yordamida haroratni ulchash usuli 3-sebek effektidan foydalanishga asoslangan. Bu effektga asosan termopara klemmalarida issiqlik E.Yu.K. $t - t_1$ yeku $t - t_0$ xaroratlarfarqigabog'likdir.

Issiqlik.e.yu.k. xar xil termoparalar uchun haroratga bog'likligigraudiovkajadvallaridakeltirilganbo'ladi. Unchakattabulmaganharorat $(-10-+20)^{\circ}\text{C}$ uchunxromel-kopeltermoparalargaquyidagiformulaniishlatishmumkin :

$$t = 0.0065 \Delta U \quad (1)$$

bunda t -erkinuchningharorati (0°Sda) ishchiuchningharorati, $^{\circ}\text{S}$.

ΔU - issiqlik elektr yurituvchi kuchi (e.yu.k.), mv da

Tekshirish uslublari,xamma ishlatiladigan ulchash asboblarining issiqlikka sezgir uchlari birgalikda sovitish kamerasi ichiga kuyilib,bir vaqtda va teng vaqtlar intervalida (masalan 3min) kursatgichlar eng kamida 3marta yozib olinadi. Sovitish kamerasidagi xavoning xarorati oldin eshik yopiq bo'lganda qarshilik termometrlari,yoki termopara yordamida ulchanadi.

T o p s h i r i q :

Xar bir talaba bu ishni mustaqil bajarishi kerak.

1. Simobli termometrlarni takkoshlash usuli bilan 2 marta aniklanadi: sovutuvchi kameraga tushirguncha va kameraga tushirgandan keyin. Termometrni kameraga tushirishdan oldin nul nuqtasini aniqlash uchun atrof muxit xaroratida birnecha vaqt ushlab turish kerak,keyin ulchashlar utkazish mumkin,xisoblar tekshirilayotgan va tekshirilgan termometrlar bo'yicha olinadi. Olingannatijalarniquyidagijadvalgayozishkerak.

Jadval – 1

Ulchash Vaqti	Binodatermomerlarningkursatishi	Tuzatma
	Tekshirilayotgan : Namuna,tekshirilgan	+ : -

2. Termografni pribor ishlaydigan binoda regulirovka qilish. Regulirovka termograf perosi yordamida termograf lentasida amalga oshiriladi. Peroning uchini termograf lentasining shunday chizigiga kuyamizki bu nazorat termometrining kursatishiga mos kelsin. Agar bu mos kelmasa,u vaqtda richag bilan peroning xolati regulyator yordamida regulirovka qilinadi,u yoki bu tomonga sekin burash bilan,natijada richag yo pasaytiriladi,yoki yuqoriga kutariladi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalda yoziladi.

Jadval – 2

Sanavasoatlar	Priborlarning kursatishi °S,
	Tekshirilgan : T e r m o g r a f n i
	Termometr : reg.-gacha: reg.keyin

b/ Xavoning nisbiy namligini o'lchash va nazorat qilish.

Ishning maqsadi: Talabalarni sovutish kameralarining ichidagi va mahsulotlarni tabiiy xamda sun'iy sovuqlik bilan sovutadigan omborxonalardagi xavoning nisbiy namligini ulchash, ulchovchi asboblarning ishlash prinsiplari bilan tanishish.

Kerakli asboblari : Psixrometr, psixrometrik jadvallar, gigrograflar.

Xavoning nisbiy namligini sovutish kameralarida yoki isitilgan binolarda ulchashning psixrometrik va gigrometrik usullari mavjud.

Xavo namligini psixrometrik usulda ulchash, xavo haroratini 2-ta termometr bilan: «quruq» oddiy termometr va «xo'l» ya'ni termosezgir elementi namlangan mato bilan uralgan termometr bilan ulchashga asoslangan. Namlikning suglanishi xul termometrning sovushiga olib keladi. Xavoning nisbiy namligi kancha katta bulsa bug'lanish intensivligi shuncha kichik buladi. Agar xavoning namligi kancha kichik bo'lsa, xul termometrning harorati xam shuncha past buladi, termometrga kushimcha konveksiya, nurlanish, issiklik utkazuvchanligi bilan issiklik oqimi kelmayotgan bulsa, u xolda namlangan mato xarorati termometr xaroratigacha pasayadi. Haqiqatda esa namlikning harorati xul termometr xaroratidan ancha yuqori buladi.

Maxsus graudirovka (psixrometrik) jadvallar yordamida kuruk va xul termometrlarning kursatkichlari buyicha nisbiy namlik ulchanadi. Namlikni ulchashni psixrometrik usuliga asoslangan ulchovchi asboblari psixrometrlar deyiladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sovutib saqlashda Avgust va Aspirasion psixrometrlar keng ishlatiladi.

Avgust psixrometri 2ta spirtli termometr, distillangan suv zapasli rezervuar va korpusdan iborat. Xul termometrning termosezmo rezervuari botisidan kilingan bir navbatli qoplama joylashtirilgan va pastki qismi distillangan suvga tushirilgan.

Aspirasion psixrometr 2ta simobli termometrdan, gardishi, kulli yoki uzatishga ega bulgan ventilyator urnatilgan ximoya trubkalaridan iborat. Xo'l termometr rezervuari botis qatlami bilan o'ralgan va bu ulchashdan oldin xullanadi. Ventilyatorning vazifasi termometrlarni taxlil qilinayotgan havo bilan intensiv va

bir tekisda shamollatib turushni ta'minlashdan iboratdir. Bu esa ulchash vaqtini qiskartiradi va ulchash aniqligini oshiradi. Aspirasion psixrometr havoning – 10 - +40°S haroratda 10 dan 100% gacha nisbiy namlikni ulchashga muljallangan.

Topshiriq : Havo namligini Avgust psixrometri va gigrograf yordamida ulchang.

1). Havo namligini Avgust psixrometri yordamida aniqlash.

Havo namligini aniqlashning bu usuli haroratni ulchashni 2ta, «quruq» va «xo'l» termometrlar yordamida bajarishga asoslangan. Bu termometrlarning «xo'li» nam mato bilan uralgan bo'lib uning harorati «quruq» termometrning xaroratidan doim past bo'ladi, chunki nalikning bug'lanishi «xul» termometrning sovushiga olib keladi. Bu 2 ta termometrlar kursatishining farqi bo'yicha jadval yordamida havoning nisbiy namligini aniqlang va jadvalga yozing.

2) Havo namligini gigrograf yordamida aniqlash:

Bu usulda namlik natijasida yog'sizlantirilgan soch tolalari qisqarsa yoki uzaysa, mahsus buyoq bilan tuldirilgan qismi richaglar sistemaiga ta'sir qiladi va vertikal yunalish bo'yicha peroni xolatini uzgarishiga olib keladi. Pero esa aylanuvchi silindrik barabanga uralgan mahsus lentaga kotiriladi. Silindrik baraban soat mexanizmi orqali xarakatga keltiriladi. Natijada, peroning xarakati tufayli lentada xam gorizontal, xam vertikal yunalishidagi egri chizik-gigrogramma chziladi.

Talaba psixrometr bilan gigrografning jadvalga yozib, jadval bo'yicha xulosa qilish kerak.

Jadval-3

Ulchash vaqti vasana	Termometr bo'yicha harorat, °S		Quruq va xo'l termometrlar kursatishi	Nisbiy namlik %	
	Quruq	Xo'l		Avgust psixrometr bo'yicha.	Gigrograf bo'yicha

v) Havoning xarakat tezligini o'lchash.

Ishning maqsadi: Sabzavotlar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda havoning xarakat tezligini o'lchash usullari va asboblari bilan tanishish.

Kerakli asboblari: Metal yoki polietilen kondisionerli stasionar yoki yig'ma sovitish kamerasi qullaniladi, boshkariladigan gaz muxitida va yarim yon devorli tubida mahsulot saqlanadigan perforirlangan konteyner urnatilgan. Bulardan tashqari gaz yutuvchi, ventilyator, katta termometr, o'lchash asbobi (lineyka) buladi.

Tekshirish usullari: Havo xarakati tezligi 0,3m/s dan kichik bulganda: o'lchash katta termometr yordamida amalga oshiriladi, bu esa spirtli mahsus termometrdan (pastki qismida katta spirtli rezervuarga, yuqori qismida esa kapilyar kengayishiga ega) iborat. Katta termometr shkalasi 33dan 40°S graudirovkalangan. Katta termometarning ishlash prinsipi sovutishning tezligi uzi joylashgan havo harorati tezligiga bog'likligiga asoslangan. O'lchashdan oldin katta termometr 70°S li suvga solinadi va kapilyarning yuqorigi kengayish qismining yarmigacha tulishiga erishiladi.

Katta termometr o'lchash nuqtasiga urnatilib, sekundomer bilan uning haroratini 38 dan 35°S gacha pasayishiga ketgan vaqtni hisoblaymiz. Havoning harakat tezligini quyidagi formula bilan topamiz:

$$g = 6,25 \frac{F}{\tau \cdot 36,5 - t} - 0,2^2$$

F – kata termometr faktori (pasportida beriladi).

t – havo harorati, °S

τ - kata termometarning 38 dan 35°S gacha pasayishiga ketgan vaqt, sek.

Havo harorati tezligi 0,3 m/s dan katta bulganda aylanish chastotasi havo harakati tezligiga proporsional bulgan qanotli anemometr bilan ulchanadi. Qanotli anemometr qanoachadan, sanash mexanizmidan, sanash mexanizmini ulash va uzish richagidan iborat.

Tezlikni o'lchash uchun oldin sekundometr aylanishining bir minutini tug'rilab olish lozim.

Topshiriq :

Sovitish kameralarida havoning harakat tezligini qanotchali anemometr yordamida ulchash mumkin. Bu quyidagicha amalga oshiriladi. Sovutg'ich orqali kelayotgan havoning harakat tezligi kanotchali anemometr yordamida ulchanadi va olingan natijalar daftarga yoziladi. Kanotning berilgan qismida tezlikning o'rtacha qiymatini bilib, bir soatda utayotgan havo miqdorini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$V_h = 3600 \cdot \varphi \cdot g$$

Bunda: v_h – havoning xajmi, m/soat

φ - qanotning kundalang kesim yuzasi, m

g - kanotda havoning o'rtacha tezligi, m/sek,

Bu laboratoriya ishida foydalanilgan nazorat ulchov asboblarining ish prinsiplarini quyidagi jadvalda keltiring.

Jadval-4

t/n	Priboarning nomi	Priboarning ishlashi qaysi Prinsipga asoslangan
1		
2		
3		

L A B O R A T O R I Y a I Sh I № 2

Oziq – ovqat mahsulotlarini sovutish texnologiyasi.

Ishning maqsadi : Ba'zi bir qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish usullari bilan tanishish.

Kerakli asbob va uskunalar: Sovutgich, sovutish kamerasi, tunellar. Sovutish texnologiyasida sovutish jarayonining roli ayniksa katta, chunki oziq-ovqat mahsulotlarini sovuklik bilan ishlov berishda sovutish birinchi texnologik jarayon hisoblanadi va kup xollarda tayyor mahsulotning sifatini kup xollarda aniqlaydi. Sovutish jarayonining mohiyati oziq-ovqat mahsulotlaridan issiqlik energiyasini atrof muxitga chiqarish tufayli ularning haroratini tushirishdan iborat. Pastki ruxsat etilgan harorat chegarasi sovutishda oziq-ovqatlar tukimasida muz kristallari xosil buladigan krioskopik harorat bilan mos keladi.

Sovitish jarayonining ahamiyati mahsulotlarda buladigan mikrobiologik va bioximik jarayonlarga past xaroratning ta'siriga asoslangan bo'lib, past xaroratlarda mahsulotlardagi mikroflora rivojlanishi sustlashtiriladi yoki keskin tuxtatiladi. Shu bilan birga ularda bioximik va fermentativ jarayonlarning intensivligi kamaytiriladi.

Mikroorganizmlar kupayishining tezligi xaroratga bog'lik. Kup turdagi psixrofil mikroorganizmlarning tukimalarini 2-ga bulinishi uchun zarur bulgan generasiya vaqti, xaroratni atiga 2°S ga pasaytirishda 1,5-2 marta kupayadi. Termofil va mezofil mikroorganizmlarning rivojlanishi 20-30°S da normal buladigan bulsa, krioskopik xaroratga yaqin (-1 -:-3°S) xaroratlarda ularning rivojlanishi butunlay tuxtaydi. Psixrofil mikroorganizmlarning 0°S dagi rivojlanish tezligidan 10marta kam buladi. Shuning uchun mahsulotlarni mikrobiologik buzulish kursatkichlarini kamaytirish uchun ularni sovutish mumkin kadar past xaroratgacha olib borilishi kerak.

Hayvon, parranda va boshqalarda ulgandan keyingi qotishida yetilishning bioximik va fermentativ jarayonlarni, xamda gusht tukimalarining yetilishi jarayoni (avtoliz) da xam 20-30°S xaroratlarda juda yuqori intensivlikka ega, muskul tukimalardan chikayotgan issiklik ularning xaroratini bir necha graduslarga kutarishi va bu bilan yuqoridagi jarayonlarni tezlashtirish mumkin. Yangi gusht, balik va parrandalarning buzulishini oldini olish uchun avtolitik jarayonlarni ma'lum boskichda tuxtatish kerak va shu maksadda tukimlarining xaroratini pasaytirish kerak. Sovuk konli va issik konli xayvonlar tukimalaridagi bioximik va fermentativ jarayonlarning yuqori intensivligi suvutishning juda muximligini maqsadga muvofiqligini asoslab beradi. Meva va sabzavotlarda bioximik jarayonlarning intensivligi ularning saqlanish davomiyligi bilan boglangan: nafas olish kanchalik intensiv bulsa (metabolik jarayonlar), usimliklar shunchalik tez pishadi va uladi, ular tarkibida vitaminlar kislotaliligi va boshka moddalarning miqdori kamayadi. Metabolik jarayonlarning intensivligi xarorat pasayishi bilan eksperimental qonuniyat bo'yicha pasayadi va +30°S xaroratda bu intensivlik 0°S ga qaraganda 20-30 marta kup bulishi mumkin. Bioximik parchalanish reaksiyalari va nafas olish jarayoni ayniqsa, meva va sabzavotlar yig'ib olingandan keyin bevosita tez va intensiv utadi. Shuning uchun usimlikdan kelib chiqadigan mahsulotlarni tez (va yigim-terimdan sung larrov) sovitish jarayoni amalga oshirilishi kerak. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida mahsulotlarni sovutishning kuyidagi usullari mavjud: gazsimon muxitda (havo, N₂, SO₂), suyuq muxitda (suv, namakob), eriyotgan muzda (suv_muzli aralashma), qor bilan, vakuum ostida, shu bilan birga mahsulotlarning sovuq yuza bilan kontaktidan. Mahsulotlarni havo muxitida sovutish, sovutishning eng kup tarkalgan va universal sovutish usuli xisoblaadi. Sovutishning davomlilik vaqti mahsulotning boshlangich haroratiga, havo xarakatining tezligiga, tananing ulcham va formasiga, mahsulotning issiklik fizikaviy xususiyatiga boglik, xavo muxitida.

Jadval – 5

Mahsulot	Sovutish usuli	Temperatura °S	Xavoning xarakat tezligi m/s
G U Sh T molniki	1. sekin	2	0,1 – 0,2
	2. tezlashtirilgan	0	0,5 – 0,8
	3. birfazalitez	-3 - -5	1 – 2
	4. ikkifazalitez	-3 - -5	1 – 2
	5. oxirigachasovut.	-3 - -1,5	0,1 – 0,2
	6. ikki fazali uta tez sovutish	-10 - -12	1 – 2
	7. oxirigachasovut.	-1,5 - -1,5	0,1 – 0,2
Mevava sabzavotlar	8. saqlashkamera	-2 - +4	1 – 1,5

	9. sovutishkam.	- 2 - +4	3 – 4
Parranda	10. tunellarda	-0,5 - -4	3 – 4
Tuxum	11. sovutishkamyeralarida	- 1 - -2	0,3 – 0,5

Jadval – 6

№	Boshlangichtemperatura, °S	Tayyormahsulot	Temperaturasi
		Sirtida	markazida
1.	35	2	4
2.	35	0	4
3.	35	- 1,5	4
4.	35	- 1 - - 1,5	10 – 15
5.	10 - 15	- 1 - - 1,5	4
6.	35	- 1 - - 1,5	15 – 18
7.	15 - 18	- 1 - - 1,5	4
8.	20	-0,5 - - 2	4
9.	20	- 0,5 - -2	4
10.	25	- 0,5	4
11.	20	-1 - . -2	2 – 3

Jadval – 7

Mahsulot	Suyuk muxit temperaturasi ° S	Namakobning xarakat tezligi m/s	Temperatura °S	Tayyormaxsul. temperaturasi	
				Sirtida!markazida	
Balik	- 2 - - 4	---	25	-0,6- -2	-1- +5
Parranda	0	0,2	20	0	4
Meva va sabz	0	---	20	0	4

E s l a t m a: Sovutish usuli – Botirish

L A B O R A T O R I Y a I S h I №3

Pachkalarda qadoqlangan oziq – ovqat mahsulotlarining sovutish davomiyligini hisoblash.

Ishning maqsadi: Bir fazali sovutish usuli bilan oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish davomiyligini xisoblash metodikasi yordamida tugri burchakli parallelopeptid formasidagi margarin yoki sarik yog'ning pachkalar, korobka, bloklar ulchami berilgan xol uchun va sovutishning shartlari berilganda xuddi shuningdek geometrik ulchamlarning, temperaturalar farkining sovutish davomiyligiga ta'sirini tekshirish.

Kerakli asbob va uskunalar: Ishda xisoblashning oddiy vositalari mikrokalkulyatorlar ishlatiladi. Mahsulotning markazida temperaturani ulchash uchun nomogrammalardan foydalaniladi.

Tekshirish uslublari: Oziq-ovqat mahsulotlarining tabiiy ravishda geometrik shakli xar xil bulgani uchun ularning issiqlik utkazuvchanligini bitta formula bilan aniqlash kiyin. Shuning uchun shartli ravishda geometrik shakli chegaralanmagan plastinka, tug'ri burchakli paralleloptid, shar va silindr shaklidagi mahsulot uchun sovutish davomiyligi formulalarini keltiramiz:

1) Chegaralanmagan plastinka shakli uchun mahsulotning istalgan nuqtadagi, berilgan vaqtidagi temperaturasini kuyidagi formula yordamida topishimiz kerak.

$$Q = \frac{T - T_c}{T_o - T_c} = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{A_n \cos(\mu_n \frac{X}{R}) \exp(-\mu_n^2 F_o)}{R}$$

Bunda: T – ma'lum vaqtdagi mahsulot sirtidan X masofadagi temperatura,

T_o – mahsulot ichidagi teng tarqalgan temperatura,

T_c - boshlangich vaqtdagi temperaturasi doimiy bulgan havo oqimida plastinka temperaturasi;

A_n – koefitsiyent $A_n = 2 \sin \mu_n / (\mu_n + \sin \mu_n \cos \mu_n)$

μ_n – xarakteristik tenglama ildizi $\text{ctg } \mu = \mu / \text{Bi}; \alpha^2$

Bi – bio kriteriysi; $\text{Bi} = \frac{\alpha}{\lambda}$

R - plastinka qalinligi

α - issiklik berish koefitsiyenti

λ - mahsulotni issiklik utkazish koefitsiyenti

F_o - furye soni bo'lib; $F_o = \frac{a\tau}{R^2}$

τ - sovutish davomiyligi;

a – mahsulotni temperatura utkazish koefitsiyenti; $a = \frac{\lambda}{\rho c_p}$

s - solishtirma issiqlik sigimi;

ρ - mahsulotning zichligi

2) Tug'ri burchakli parallelopipedning o'lchamlari yunalishidagi mahsulot qalinligining yarmi, $2R_x, 2R_y, 2R_z$ (R_x, R_y, R_z);

Bu xol uchun: x, y, z o'qlari

$$Q = \frac{T - T_c}{T - T_c} = Q_1 + Q_2 + Q_3$$

Bunda : Q_1 ; Q_2 ; $Q_3 - 2R_x, 2R_y, 2R_z$ - plastinkalardagi 0t

3) Shar shakli uchun, sfera radiusi R bulsa :

$$Q_{\text{III}} = \frac{T - T_c}{T_0 - T_c} = \sum_{n=1}^{\infty} B_n R \sin \left(\mu_n \frac{r}{R} \right) \exp \left(- \mu_n^2 F_0 \right) / \left(\sum \mu_n \right)$$

Bunda: r – qaralayotgan nuktagacha bulgan masofa

μ_p – xarakteristik tenglamaning ildizi $\text{ctg } \mu = \mu / (1 - Bi)$

$Bi = 2 (\sin \mu_n - \mu_n \cos \mu_n) / (\mu_n - \sin \mu_n \cos \mu_n)$ koeffisiyenti

4) Silindr uchun R - radius bulsa :

$$Q_s = \frac{T - T_c}{T_0 - T_c} = \sum_{n=1}^{\infty} C_n J_0 \left(\mu_n \frac{r}{R} \right) \exp \left(- \mu_n^2 F_0 \right)$$

Bunda : μ_n – xarakteristik tenglama ildizi $J_c/J_1 = \mu/Bi$

$J_0 J_1$ ----- Bessel funksiyasi

$Sn = 2Bi / (J_0 \mu_n) \mu_n^2 + Bi^2$ - koeffisiyentlar

Xisoblarni tezlashtirish uchun Korenev kitobining 18 -19 betlarida keltirilgan nomogrammalardan berilgan F va Bi uchun mahsulot sirtidagi va markazidagi Q - larni aniqlash mumkin (Q_c Q_m)

Ishning bajarilishi: Uqituvchining kursatmasiga kura mahsulot tanlab olinadi, uning ulchamlari, mahsulot sirtidagi issiklik berish sharoitlari, mahsulotning boshlangich temperaturasi, sovutuvchi muxitning temperaturasi va vaqtning 5-7 soat qiymatlari bo'yicha mahsulotning sirti va markazidagi temperatura topiladi.

Spravochniklardan mahsulotning fizik xarakteristikallari (L a ρ λ c) olinadi.

Bir kriteriysi soni parallelipedning xar bir qirrasi uchun xisoblanadi.

$$Bi_x = \alpha_x R_x / \lambda \quad Bi_y = \alpha_y R_y \quad Bi_z = \alpha_z R_z$$

tanlab olingan vaqtning qiymatlari bo'yicha furye soni parallelipedning xar bir qirrasi uchun xisoblanadi :

$$F_{ox} = ar / R_x^2$$

$$F_{oy} = ar / R_y^2$$

$$F_{oz} = ar / R_z^2$$

nomogrammadan foydalanib xar bir qirra uchun maxsulot sirti va markazidagi temperatura aniqlanadi (Q_{cx} , Q_{oy} , Q_{cz} va Q_{mx} , Q_{my} , Q_{mz}) tugri burchakli parallelopipedning sirti va markazidagi nisbiy temperaturalar xisoblanadi.

$$Q_m = Q_{mx} \cdot Q_{my} \cdot Q_{mz}; \quad Q_{ct} = Q_{cx} \cdot Q_{cy} \cdot Q_{cz}$$

$$T_m = T_c + Q_m (T_o - T_c) \quad T_{ct} = Q_c (T_o - T_c)$$

Olingan natijalar buyicha $t = f(ch)$ grafik chiziladi.

O'qituvchi kursatmasiga qarab sovutish davomiyligiga biron bir faktorning ta'siri urganiladi, masalan, maxsulotning chizikli ulchamlari, sovutuvchi muxit temperaturasi va xakazo. Ishning oxirida ish bo'yicha hisobot tuziladi. Maxsulotning bu usul bilan sovutilish massasi yunalishning 1-2% -ni tashkil qiladi. Bu usul bilan meva va sabzavotlar, salat, shpinat, petrushkalar sovutiladi. Mahsulotning sovuq spirt bilan kontaktlashishi asosida suyuq mahsulotlar sovutiladi. Metal sovuq yuza texnologik jixozdagi shnekning, plitaning, barabanning tashqi sirti bo'lib suvni yoki suyuq mahsulotni sovutish uchun ishlatiladi va issiklik almashtirgichning issiqlik uzatuvchi yuzasi xisoblanadi. Metal yuzasidan issiklik sovuq suv, namakob (rassol) qaynayotgan sovutish agenti orkali olib ketiladi. Bunday sovutish usuli kandolat sanoatida (karamel va shokolad massalarini sovutishda) ishlatiladi va kisman spirtli maxsulotlar (sirop, piva, susla va xakozo) ishlab chiqarishda qullaniladi.

Maxsulotlarni sovutish stasionar sovutish kameralarida, tunelli sovutish dala va bog'da boshlangich sovutish stansiyalarida sovutiladi. Sovutish kameralarini sovutuvchi jixozlar – batareyalar va havo sovutgichlari, konveyerlar etajerkali aravachalar (telejkalar), konteynerlardir.

Kamera va tunellarda maxsulotlarni bir tekis sovuq havo bilan yuvilishini ta'minlovchi kanalli va kanalsiz havo tarkatgichlar kulaniladi. Ikki fazali sovutish yechma-yech joylashgan turli xaroratli kameralarda: taxminan sovutish va tulik sovutish kameralarida amalga oshadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini metal sovuq yuzalar bilan bevosita kontaktli sovutishda trubali, plastinkali va rotorli sovutgichlar kulaniladi. Sut, qaymoq va boshqa suyuq maxsulotlar trubali sugoruvchi sovutgichlarda plastinkali sovutgichlarda, sovutish kurilmalarida sovutiladi. Vakuum bilan sovutish murakkab jixoz-vakuum nasos va vakuum kameralarni talab kiladi. Havo va suyuqlik muxitida oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish rejimlarining parametrlari 1 va 2 chi jadvallarda keltirilgan. Mahsulotlarni sovutishning 1 va 2 chi fazali usullari mavjud. Bir fazali sovutishda xavoning xarorati sovutish jarayoni davomida (uning kiymati krioskopik kiymatdan past emas) doimiy koladi. Ikki fazali sovutishning birinchi

bosqichida (sovutish stadiyasida) xavoning xarorati doimiy va krioskopik xaroratdan ancha past miqdor (-10°S) ushlab turiladi. Bu boskich mahsulotning xarorati krioskopik xarorat nuqtasigacha tushuncha davom etadi. Ikki fazali sovutishning ikkinchi boskichi (oxirigacha sovutish) da havo xarorati doimiy buladi, lekin krioskopik xaroratdan past bulmaydi. U stadiya mahsulotning urta qismi yoki markazida berilgan oxirgi xaroratga yetguncha davom etadi (masaln, $+4^{\circ}\text{S}$ gacha) Havo muxitida sovutishda mahsulotni sovutish tezligi kup darajada mahsulot yuzasi bo'yicha xavoning xarakat tezligiga bog'lik. Sekin sovutishda xavoning xarakat tezligi $0,1 - 0,2\text{m/s}$, tezlashtirilganda $-0,5 - 0,8\text{ m/s}$, tez va uta tez aralashtirilgan sovutishda $1-2\text{m/s} - 4\text{m/s}$ gacha) ga teng.

Gazsimon muxitda sovutish kuproq gusht va gusht mahsulotlari parranda, tayyor ovqat, meva sabzavot, tuxum, yog, sutli mahsulotlarni sovutishda qullaniladi. Mahsulotlarni suyuq muxitda sovutish, sug'orish, chuktirish (botirish) yoki ikkala usulni xam bir vaqtda kullash bilan amalga oshiriladi. Sovutuvchi suyuqliklar sifatida sovuk suv, muz $2-4\%$ li , osh tuzining eritmasi, sovutilgan dengiz suv ishlatiladi. Mahsulotlar upakovkalanagan xolda (polietilen paketlarda, metall forma va flyagalarda) yoki bevosita sovutuvchi suyuqlik bilan kontaktda sovutiladi. Mahsulotlarni sovutishda sovutish jarayonini intensivlashtirish mumkin, sovutuvchi suyuqlikning uzluksiz sirkulyasiyasi va yuvish tezligini oshirish bilan. Suyuq muxitda baliq, parranda, meva va sabzavotlar sovutiladi. Vakuumlashtirish (atmosfera ni siyraklashtirish) bilan sovutish, siyraklashgan muxitda (vakuum) mahsulot tukimalaridagi namlikning intensiv bug'lanishiga asoslangan.

LABORATORIYA I Sh I № 4

Oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish texnologiyasi.

Ishning maksadi: Oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish jarayonini urganish.

Kerakli asbob uskunalar: Stasionar sovitish kameralari, muzlatgichlar, muzlatish kamerasi.

Muzlatish jarayonining moxiyati mahsulotlarning xaroratini krioskopik nuqtadan past temperaturagacha tushirib mahsulot tarkibida mavjud bulgan namlikni kisman yoki butunlay muzga aylantirishdan iboratdir. Muzlatish jarayoni muzlatilgan mahsulotlarni keyinchalik uzok muddatga saklash, muzkaymok olish, muz olish va sublimasion kuritish jarayonida namlikni mahsulotdan ajatish, shar batlarni konsentrasiyasini oshirish uchun kullaniladi.

Muzlatilgan namlikning nisbiy muzlanganlik muz massasining maxsulotning tarkibidagi suyuq va kattik fazalar bilan birgalikdagi umumiy suv massasining nisbatiga aytiladi. Muzlatilgan namlikning nisbiy miqdori xaroratning funksiyasi bo'lib 0 dan (krioskopik xaroratdan yuqori) 1 gacha (maxsulotning tulik muzlashida) uzgaradi. Lekin kup maxsulotlarni tulik muzlatishga juda past xaroratlarda xam erishib bulmaydi va muzlash jarayoni oralik stadiyalarda tuxtab koladi. Bu momentda maxsulotdagi xarorat maydoni tekis taksimlanmagan: maxsulotning markazida xarorat ,chetning sirtlariga karaganda ancha yuqoriroq.

Maxsulotning urtacha oxirgi xarorati deb,maxsulotning urtacha integral xaroratiga aytiladi,ya'ni bu shunday xaroratki,buni muzlatilgan maxsulot adiabatik sharoitda issiqlik mvozanatiga qabul qilishi mumkin.

Urtacha oxirgi xaroratini t. y.o. D.G.Ryutov formulasi bilan baxolash mumkin,agar maxsulotning markazidagi xarorat va muzlatilayotgan muxit xarorati ma'lum bulsa:

$$t_{y.o} = 0.5[t_m(Bi + 2) + t_{myx} \cdot Bi] / (Bi + 1)$$

$t_{y.o}$ -----o'rtacha oxirgi harorati

t_m ----- mahsulot markazidagi xarorat

t_{mux} ----- muhit harorati

bunda βi - biokriteriyasi [$\beta i = \lambda b$] 2 bunda; at- muzlatish jarayonida maxsulot yuzasidan tashqi muxitga issiqlik berish koeffisiyenti, Bt/(m².k)

b – mahsulot yuzasidan uning markazigacha ong kiska bulgan masofa.

λ - muzlatish jarayoni bulgan xaroratida muzlatilgan maxsulot issiklik utkazuvchanlik koeffisiyenti.

Krioskopik (t_{kr}) xaroratdan urtacha oxirgi $t_{y.o}$

Xaroratgacha bulgan intervaldagi muzlatish jarayonining urtacha xaroratini kuyidagi formuladan topishimiz mumkin.

$$t_{yp} = (t_{yo} - t_{kr}) / \ln(t_{yb}/t_{kr})$$

Mahsulotning birort haroratida muzlatilgan namlik (ϖ) miqdorini taxminan quyidagi tenglamadan topishimiz mumkin. Muzlatilgan jarayonning urtacha xaroratida muzlatil gannamlik miqdorini (ϖ_1) kuyidagi formula orqali topish mumkin.

$$\varpi = \frac{t - t_{kr}}{T} = 1 - \frac{t_{kr}}{t};$$

$$\varpi_1 = 1 - t_{kr} / t_{yr}$$

Muzlatish jarayonining urtacha oxirgi xaroratida muzlatilgan namlik miqdorini (ϖ^2) kuyidagichatopishmumkin.

$$\varpi_2 = 1 - t_{kr} / t_{uro}$$

Toza suyuqliklarni va birkomponentli evtektik konsentrsiyali (kriogidratli) suvli eritmalarini sovutishda muzlash doimiy xaroratda buladi, ya'ni muzlash xarorati deb aytilmaydigan xaroratda. Atmosfera bosimida suvning muzlashi 0°Sda, osh tuzining evtektik eritmasida 21.2°S da amalga oshadi. Mineral va organik moddalarning suvli eritmalarida muzlatish uzgaruvchan xaroratlarda buladi. Suvda tuz konsentrsiyasining evtektik konsentrsiyagacha oshishi bilan krioskopik pasayib boradi. Konsentrsiyaning keyingi oshishi esa krioskopik xaroratining kutarilishiga olib keladi./rasm/.

Boshlangich tuz konsentrsiyasi eftektik konsentrsiya yadan past bulgan eritma sovutilganda krioskopik xaroratgacha suyuq birlazali xolatini saqlab qoladi.

Eritmani krioskopik xarorattan past xaroratga sovutishda unda suv muzlarining kristallari chuka boshlaydi, suyuq fazadagi kolgan tuzning konsentrsiyasi esa oshadi. Bu jarayon konsentrsiya (suyukfazadagi) evtektiv konsentrsiyasiga yetguncha davom etadi, bundan keyin esa eritmaning doimiy kriogidrat xaroratida kriogidrat xosil bulishi bilan muzlatiladi. Shunday qilib, boshlangich konsentrsiyasi eftektik konsentrsiyasidan past bulgan tuzli eritmada olingan muz bir xil bulmagan tarkibga ega bulib kisman u toza suvli muzdan va qisman kriogidratdan iborat.

Kriogidrat yoki evtektik g'bu evtektik eritmani muzlatishda olingan mayda suv muzi va tuz kristallarining mexanik aralashmasidir: shu tarkibli eritma xosil bulishi bilan kriogidrat eriydi. Evtektik kriogidratli eritmaning muzlash xarorati shu tuzning suvli eritmalarining krioskopik xarotlari ichida eng kichik xisoblanadi va kriogidratli xarorat deyiladi. Ayrim tuzlar suvli eritmasining kriogidrat xolati jadvalda keltirilgan uncha katta bulmagan konsentrsiyali eritmalarining krioskopik xarorati uz katta konsentrsiyasiga proporsional (elotrolitik dissosiasiya bulmaganda): $t_{kr} = t_o - K_{kr} : S$

Bundat_o - toza erituvchining muzlash xarorati , °S

K_{kr} –eritmaning krioskopik doimiysi (suv uchun)

S – tuz konsentrsiyasi, 1kg eritmadagi moli.

Oziq-ovqat mahsulotlarining tukima sharbati – 55% -65°S kriogidrat va – 0,5 -5°S krioskopik xaroratga mos keladigan dissosiasiyalanadigan kolloidli murakkab tarkibli eritma xisoblanadi. Tukima sharbatining krioskopik xarotlari turli xil: issiq konli xayvonlar uchun 0,6 – 1,2°S, chuchuk suv baliklar uchun – 1,5°S, sabzi uchun -1,5°S , lavlagi uchun -1,6°S, sarimsok piyoz uchun – 2,6°S. olma uchun -2°S, nok uchun -2,4°S, urik uchun -2,6°S va uzum uchun -3,8 – 5°S.

Muzlash jarayonining xarorat grafigi deb, muzlatilayotgan maxsulotning xaroratini muzlatish vaktiga bog'lik grafigiga aytiladi. (Rasm). Toza moddalar, suv yoki evtektiv eritmalarining muzlashining xarorat grafigi 3ta uchastka bilan xarakterlanadi:

- boshlangich xaroratdan muzlash xaroratigacha sovutish,
- muzlashning doimiy xaroratida muz xosil bulishi,
- muzlatilgan maxsulotning sovutilishi.

Boshlangich konsentrasiyasi evtektik konsentrasiyasidan past bulgan suvli eritmaning muzlash xarorati grafigi 4 ta uchastkadan iborat:

- boshlangich xaroratdan krioskopik xaroratgacha sovutish,
- krioskopik xaroratdan kriogidrat xaroratigacha sovutish (xaroratni pasayish tempi suv muzlari kristallari xosil bulishi natijasida sekinlashadi),
- evtektikaning kotishi (xarorat uzgarmaydi va grafikda gorizontli izotermik uchastka xosil buladi),
- evtektikani kriogidratdan muzlatuvchi muxitning xaroratigacha (kriogidrat xaroratdan) sovutish.

Odatda muzlatilgan eritma yoki muzlatilgan toza erituvchi xaroratining pasayish tezligi, uning suyuq xolda sovutishi tezligiga nisbatan katta buladi. Bu esa suv muzining katta issiklik utkazuvchanligi va kichik issiklik sigimi bilan tushuntiriladi. Bu grafiklardan krioskopik xaroratlarni eksperimental aniklash va foydalanish mumkin. Suyukliklarni va oziq-ovqat maxsulotlarini sovutishda krioskopik xaroratdan 1-2 gradus past xaroratgacha uta sovutish mumkin. Bu xolat bekaror va keyingi sovutishda buziladi. Agar uta sovutilgan suyuklik toza modda bulsa, xaroratni oshirish bu xolatning buzilishida muzlash xaroratigacha buladi. Agar uta sovutilgan eritma kristallansa, bunda xarorat krioskopik xaroratdan bir kancha past xaroratgacha kutariladi, chunki eritmaning uta sovugan xolatdan chikishda bir kism suv muzlaydi. Muzlatish xarorati grafiklari bo'yicha krioskopik xaroratni aniklashda katoliklarga yul bermaslik uchun eritmalarining uta sovutilishiga yul kuymaslik kerak.

Oziq-ovqat maxsulotlarini muzlatishni tabiiy kuzatuvchi sirkulyasiyalı havo muxitida, uzaro qaynash katlamida, suyuq muxitda _ namakob (rassolda), propilengoi – kolda, suyuq azotda, metal sirtida va muz tuzli aralashmada amalga oshirish mumkin. Havo muxitida muzlatish eng kup tarkalgan usul bo'lib xisoblanadi. Gusht yarim tush shaklida – 30°S yoki -35°S da muzlatilishi mumkin. Gusht muzlagan xisoblanadi, agar oxirgi xarorati -10 - -15°s ga yetsa, bir fazali muzlatish usulida yangi gusht darxol muzlatuvchi kameralarga kuyiladi. Ikki fazali muzlatishda esa oldin sovutiladi (birinchi faza) keyin muzlatiladi (ikkinchi faza). Muzlatish kamerasidagi 2-3 m/s

tezlikdagi kuzatilgan sirkulyasiya muzlash davomiyligini 3-8 soatga kiskartirishi mumkin.

Gushtlar, balik va parrandalar havo muxitda muzlashining urtacha davomiyligi 48 soatni tashkil kiladi. Uzaro qaynash katlamida sovuk havo okimida mayda donli yoki kesilgan sabzavotlar (masaln kuk nuxat) muzlatiladi.

Mahsulotlarni suyuq muxitda muzlatish ularni ma'lum vaqtga sovuk suyuqlikka tushirish bilan amalga oshiriladi. Masalan : plankaga uralgan parranda tushi -28°S li propilenglikol yoki SaSI_2 eritmasiga 20-40 minut tushiriladi.

Mahsulotni sovuq metil spirti bilan kontaktda muzlatish tvaroglar blokini muzlatishga, kaysikim ular 2ta muzlatuvchi plitalar urtasida preslanadi, bloklardagi gushtlarni, tayyo taomlarni meva sabzavotlarni, meva sabzavotlardan olingan sharbat va pyurelarni muzlatishda kullaniladi. Bunday usulda muzlatilayotgan maxsulotlarni issiqligi metal devor orkali bevosita kaynayotgan sovutish agentiga yoki issiklik tashuvchiga beriladi. Yangi ushlangan baliklarni muzlatishda muz-tuzli aralashmada yonma –yon taxlanib oldindan aralashtirilgan tuz va muz bilan sovutiladi. Muz miqdori balik massasining 18% ini tashkil etadi. Bu usul bilan balikni urtacha oxirgi xarorati $-8 - -10^{\circ}\text{S}$ gacha sovutilishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlari stasionar sovutish kameralarida va jixozlarida muzlatiladi. Muzlatish kameralari tabiiy va majburiy sirkulyasiyali xavoni, oldi berk va utiladigan, doimiy va davriy turlarga bulinadi. Kameralar osma yullar va urnatilgan poddonlar bilan jixozlangan. Tabiiy sirkulyasiyali kameralarda devorli va shiftli sovutish batareyalari urnatiladi, agar kuzgatuvchi sirkulyasiyali xavo bilan kamera ishlaydigan bulsa, havo sovutgichlar va havo taksimlagichning mahsus sistemalaridan foydalaniladi. Muzlatish kameralarining tunelli turi keng kullaniladi. Muzlatish jixozlari xavoli, metalli, kontaktli turlagga bulinadi.

Bulardan havoli muzlatish kurilmalari universal xisoblanadi. Havoli muzlatish kurilmalari issiklik izolyasiyali tunell bulib, unga sovutuvchi batareyalar, ventilyatorlar, transport vositalari (konveyer yoki telejka) joylashtirilgan.

Plitali muzlatish jixozlari upakovkalangan maxsulotlarni muzlatish uchun muljallangan: masalan, balik filesi, tayyor maxsulot blokli gusht va xakozo. Qoida bo'yicha bu kurilmalar bevosita sovutish sistemasiga ega.

Kontaktli muzlatish kurilmalarida suyuq muzlatuvchi muxit sifatida osh tuzi va kalsiy xlor eritmasi, etilenglikol, propilenglikol, suyuq azot, xladonlar ishlatiladi. Kontaktli jixozlarda muzlatish sepish (orosheniye) yoki botirish usulida olib boriladi. Xozirgi vaqtda ishlab chiqarishda bir oz muzlatishning

moxiyati maxsulotni uning krioskopik xaroratidan $1 - 2^{\circ}\text{S}$ ga past xaroratgacha muzlatish va shu xolatda,shu sharoitda saqlashdan iborat.

